

## INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDA KONVERSIYA MODELLARINING STRUKTURA-SEMANTIK QIYOSIY TAHLILI

Dilfuza Badirova,  
Ingliz tilshunosligi kafedrası assistenti

**DOI:**  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14270777>

**Annotaciya:** Ushbu tezısdı ingliz va qoraqalpoq tillaridagi konversiya jarayonlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Konversiya, ya'ni bir so'z turkumining boshqa bir so'z turkumiga aylanishi, misollar orqali ingliz va qoraqalpoq tillarida ko'rsatilgan. Shuningdek, misollar orqali ot-sifat va fe'l-sifat konversiya modellarining mavjudligi va ularning ikki tilda ham farqlanishi ko'rsatilgan. Bu tilshunoslik tadqiqotlari uchun juda qiziqarli mavzu bo'lib, ingliz va qoraqalpoq tillarining o'zaro ta'siri va farqlarini o'rganishga imkon beradi.

**Kalit so'zlar:** Konversiya, model, substantivatsiya, adektivatsiya, vervalizatsiya, adverbializatsiya.

Ingliz tilida ot so'z turkumidan fe'l so'z turkumi konversiya usuli orqali yasalishi unumli hodisa bo'lib, har qanday ot fe'l xizmatida kelishi mumkin. Qoraqalpoq tilida esa otlardan fe'llar konversiya hodisasi orqali yaratilmaydi.

### Jadval №1

Noun (Ot)	Verb (fe'l)
An air- havo	To air-havosini almashtirmoq
Breakfast-nonushta	To breakfast-nonushta qilmoq
Message-xabar, xat	Messaged-xabar,xat yo'llamoq
Name-nom, atama	To name-nomlamoq, atamoq
Schedule-jadval, raspisanie	Schedule-jadval tuzmoq
Work-ish	To work-mehnat qilmoq, ishlash
Word-so'z	To word-sózlamoq

Misol: Boys spent the night with Mr.Vaughan, and they **breakfasted** together in the usual way upon bacon and eggs, toast, marmalade and coffee" ("Strong Prison". Sayers 1928).

He **emailed** her every day, telling her about his life in New York, his hopes and dreams, his fears and doubts ("The Time Traveler's Wife" Audrey Niffenegger. 281-bet).

He **shaped** his hands into a cup and scooped up the water ("Life of Pi" Yann Martel. 148-bet).

He **words** me (W.Shakespear).

Ingliz tilida sifat so'z turkumidan fe'llar yaratiladi, ammo sifatlardan fe'l so'z turkumini yaratish unumli usul emas. Bu jarayon, ya'ni sifatlarning fe'l so'z turkumiga

konversiya yo'li orqali o'tishi qoraqalpoq tilida uchramaydi. Shuning uchun, bu modelni o'rganish orqali ingliz va qoraqalpoq tillarining o'ziga xos farqlarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin.

**Jadval №2**

<b>Adjective (Klebetlik)</b>	<b>Verb (Fe'l)</b>
Dirty-kir, iflos, chang	To dirty-iflos qilmoq
Dry-quruq	To dry-quritmoq
<i>Tame- qo'lga o'rgatilgan</i>	<i>to tame- qomoq</i>
Clean- toza	to clean- tozalamoq
Pale-rangsiz, oqargan (odamning ning oqarishi)	to pale- oqarib ketmoq
Green- yashil	to green – ko'klamzorlashtirmoq

Misol: He *slowed* his horse to a trot and looked around, searching for a sign of the enemy ("The Three Musketeers" Alexandre Dumas. 59-bet).

Boshqa so'z turkumlarining sifatga o'tishi adjectivization - adektivatsiya deb ataladi. Bu jarayon ingliz va qoraqalpoq tillariga tan hodisa bo'lib, ammo hozirgi ingliz va hozirgi qoraqalpoq tillarida unchalik unumli jarayon emas.

Ingliz tilida ko'pincha ot, fe'l, ravish so'z turkumlari konversiya orqali sifatga o'tadi. Misol:

**Barking** dogs seldom bite. (Ibora)

We don't usually have such **boiling** hot weather. (Golden Dictionary)

Hozirgi qoraqalpoq tilida adektivatsiya unchalik unumli jarayon emas. Qoraqalpoq tilida sifat so'z turkumiga ko'pincha sifatdosh fe'l shakllari, sonlar, otlar va fe'llar o'tadi.

Misol:

Eshektin' ju'gi je'nil bolsa, **jata'gan** keledi.

**Qaba'gan** iyt; *Qasha'gan* mal.

*Súzege*n sıyır.; *Jata'gan* eshek

Qaraqum menen Qızılqumni'n *qayna'gan* ıssısı (J Aymurzaev).

*Aynima'gan* búlbil bolar edi ol (I. Yusupov).

Ot-sifat modeli zamonaviy ingliz va hozirgi qoraqalpoq tillariga taalluqli bo'lib, sifatga o'tgan otlar sifatning barcha funksiyalarini bajarib, o'zlari bilan kelgan so'zni tariflab va tasvirlab beradi. Misol: Tom wore **a sun hat** to protect himself from the sun's rays, a precaution taken by characters (Harper Lee "To Kill a Mockingbird").

She wrapped herself in **a silk scarf**, a cherished possession reminiscent of those in ("Breakfast at Tiffany's" Truman Capote).

She wore a **velvet** cloak (Oscar Wilde "The picture of Dorian Gray")

Ot-sifat konversiya modeli qoraqalpoq tilida ham ko'p uchraydigan hodisa bo'lib, bunda ingliz tilidagi kabi qator kelgan otlar biri ikkinchisini tavsiflab, tasvirlab, sifat so'z turkumi vazifasini bajaradi.

Misol: Amanliqtıń iynindegi qara **jún** dorbasha awırılıq etip terlegen edi ("Mamanbiy ápsanası" T.Qayıpbergenov).

**Qoy** qorağa shapqan qasqırlardı óz maydanına jibergen adamdı jurt shaymiy deydıgoy dedi ("Mamanbiy ápsanası" T.Qayıpbergenov).

Fe'l-sifat (Verb-Adjective) konversiya modeli ingliz va qoraqalpoq tillari uchun universal bo'lib hisoblanadi. Ammo, ushbu model ikkita tilda ham keng tarqalmagan.

Boshqa so'z turkumlarining ravishga o'tish jarayoni adverbializatsiya deb nomlanadi. Bu konversiya modeli ingliz va qoraqalpoq tillariga tegishli bo'lib, ingliz tilida bu model kam uchraydigan hodisa bo'lsa, qoraqalpoq tilida bu hodisa keng tarqalgan.

Otlar ravish sifatida qo'llanilganda, odatda "qayerda?", "qachon?", "qanday?" yoki "qanday qilib?" savollariga javob beradi.

Misol: They live in a beautiful home. (Noun-ot)- Ular chiroyli uyda yashaydi.

She went home (where?). (adv.-ravish)- U uyga (qayjerge?) keldi.

Hozirgi qoraqalpoq tilida adverbializatsiya orqali ravishlarga kelishik shaklidagi otlar, hol fe'l shakllari, shuningdek ba'zi sonlar va sifatlar o'tadi. Misollar: Irisqul biydi *kesh* shaqırtqanın búrkew ushın imkaniyat izlew edi (T.Qayıpbergenov).

Eregisken eki sultan da atların jedellestirip jağağa teńdey jetip keldi (K.Mambetov).

Úyi joq adam shopan sıyaqlı *kúnde* hárkimdikine gezek salıp qoyğanınan aqırzamanı bar ma? (T. Qayıpbergenov).

*Azanda, túste, keshte* barıp sazan, shabaq, ılaqa ákelip gásin quwırıp, gásin asıp issı awqat shólkemlestirildi (K. Sultanov);

Predmetning yoki harakatning har xil sifat belgilarini bildiruvchi (yaxshi, yomon), masofani bildiruvchi (uzoq, yaqin, yiroq), haroratni bildiruvchi (issiq, sovuq, iliq), shaklni bildiruvchi (baland, tik, past, qisqa, to'g'ri), xarakterni bildiruvchi (puxta, bo'sh, qom, yumshoq,) shuningdek, bi-, na- pristaftkalari va -siz/-siz affiksining qo'shilishi orqali yasalgan sifatlar ko'pincha ravish o'rnida qo'llaniladi. Bu sifatlar faqatgina muayyan kontekstlarda konversiya natijasida fe'l bilan birgalashib va ravish o'rnida qo'llaniladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ábdimuratov T., Allanazarov E. Qaraqalpaq tilinde kelbetliklerdiń ráwishlesiw qubılısı. // Ustaz. Akademik A.Dáwletovtıń 60 jılıǵına arnalǵan ilimiy maqalalar toplamı. -Nókis, 2002. – 43-46 b.; Мусаев К.М. Морфология пракыпчакского языка. - М., «Тезаурис», 2010. - Б.85.
2. Aymurzaeva Á. Qaraqalpaq tilindegi kelbetlik hám kelbetlik feyillerdiń substantivlesiwı. - Nókis, «Bilim», 1992. -B. 28.; Q.Paxratdinov, T.Ábdimuratov Qaraqalpaq tilinde konversiya. –Nókis. “Qaraqalpaqstan”, 2018. – 6 b.
3. Nasırov D. S. Qaraqalpaq tilinde kelbetlik feyil. -Nókis, 1964. –B.72.; Dáwletov M. Házirgi qaraqalpaq tilinde feyildiń funkcional formalarınıń sisteması. -Nókis, «Qaraqalpakstan», 1990. –B.56.;
4. Quirk R. A Comprehensive Grammar of the English Language. -Essex: Longman, 1997. -P. 77.